



GRAMMATIK SHAKL VALENTLIGINING LEKSEMA VALENTLIGIGA MUNOSABATI

Shokirova Xavassxon Nurmamatovna,

University of Business and Science v.b.professori, filologiya fanlari doktori

E-mail: shokirova01.72@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 67

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i1.1527>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim nazariy masalalardan biri hisoblangan valentlik kategoriyasi tahlil qilinadi. Xususan, grammatik shakl valentligining leksema semantik va leksik valentligiga ta'siri uch asosiy yo'nalishda – cheklanish, kengayish va sifatli o'zgarish asosida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida o'zbek tilidagi fe'l nisbatlari, egalik va kelishik shakllari misolida grammatik shakllarning leksemalararo birikish imkoniyatlariga ta'siri dalillanadi. Shuningdek, orttirma nisbat orqali yangi aktantlarning (kauzator, patsiyens), birgalik nisbati orqali esa kontragent valentligining yuzaga kelishi ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, orttirma nisbat shakllari orqali yangi aktantlarning – kauzator va patsiyens valentligining yuzaga kelishi, birgalik nisbati vositasida esa kontragent valentligining shakllanish jarayoni lingvistik nuqtai nazardan asoslab beriladi. Tadqiqot davomida grammatik shakllarning semantik va sintaktik tuzilishga ta'siri, ularning gap tarkibida aktantlar tizimini qay darajada boyitishi yoki o'zgartirishi ham ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari grammatik shakl va leksik birliklar o'rnatidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq anglash, valentlik nazariyasini yanada rivojlantirish hamda o'zbek tilining sintaktik-semantik tizimini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot tilshunoslikda grammatik kategoriyalar va leksema valentligining o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

zamonaviy tilshunoslik, grammatik shakl, leksema, semantik valentlik, leksik valentlik, grammatik shakl valentligi, o'timsiz fe'l, kauzator, kontragent valentligi, birikish imkoniyatlari, patsiyens valentligi

Kirish. Grammatik shaklning leksema semantik valentligiga ta'siri natijasida bir necha holatlar yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Bunda valentlik munosabatining o'rni sezilarlidir. Valentlik mohiyatan kimyoviy atama bo'lib, bu fanda u kimyoviy elementlarning o'zaro birikishi bilan bog'liq tushunchani ifodalaydi¹.

Tabiiyki, valentlik tushunchasining mazmuni S.Katsnelsonning 1948-yillarda bergan talqini asosida ancha muayyanlashtirildi va semantik, ma'noviy so'zlari bilan birikib, semantik valentlik (ma'noviy valentlik) shaklida lingvistik atamalar sirasidan mustaqil o'rindi. Semantik valentlik deganda so'zning ma'noviy xususiyatlariga ko'ra muayyan turdagi so'zlar bilan birika olish qobiliyati tushuniladigan bo'ldi. Tom ma'noda bunday tushunish valentlikning mantiqiy tushunilishi bilan uzviy bog'liq.

Adabiyotlar tahlili. O'z davrida birinchilardan bo'lib, valentlikni ilmiy tushuncha sifatida tilshunoslikka tatbiq etgan olim S.D.Katsnelson edi. 1948-yilda bu olim valentlik tushunchasi va atamasini tilshunoslikka olib kirdi². Valentlik tushunchasi ilk marta rus tilshunosligida kashf etilgan bo'lishiga qaramay, bu tushuncha G'arbiy Yevropa tilshunosligida, xususan, nemis tilshunosligida tez ommalashdi. XX asrning 50-yillarida, M.Stepanova, G.Xelbiglarning ko'rsatishlaricha, valentlik nemis tilshunosligida keng ommalashgan yangi tushunchalardan biri edi³.

Grammatik shakl leksemaning semantik valentligini ma'lum darajada cheklaydi, shunga ko'ra birikish imkoniyatlarini chegaralaydi. Masalan, birinchi holat: *kitob* leksemasi hajm – ko'lam jihatidan me'yordan kattalik va kichiklikni ifodalovchi leksemalar bilan bemalol birika oladi. Chunonchi: *katta kitob*, *kichik kitob* kabi birikishlar tilimizda me'yoriy, lekin *kitobcha* lug'aviy shakli me'yoriy yoki me'yordan katta bo'lgan miqdoriy belgiga ishora qiluvchi leksema bilan birika olmaydi. Shuning uchun *kattakon kitobcha* kabi birikma tilimizga xos emas. Shunday holatni *-lar* ko'plik qo'shimchasining voqelanishida ham ko'rish mumkin: *-lar* ko'plik shaklidagi so'z aniq miqdor ifodalovchi sonlar, chunonchi, bir yuz yigirma bir bilan birikish qobiliyatini yo'qotadi. Nisbat shakllari (majhul, o'zlik) ta'sirida so'zshakl leksik-semantik valentligining cheklanishini kuzatish mumkin. Demak, grammatik shakl valentligi ta'sirida leksik valentlikning so'zshakl valentligida cheklanishi tabiiydir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda valentlik nazariyasiga oid ilmiy qarashlar asosida grammatik shakl valentligining leksema valentligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks metodlardan foydalanildi. Jumladan, tavsifiy (deskriptiv) metod orqali grammatik shakllarning funksional xususiyatlari va ularning leksemalar bilan birikish imkoniyatlari izohlandi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida fe'l nisbatlari,

egalik hamda kelishik shakllari misolida grammatik shakl va leksik valentlik o'rnatidagi o'zaro munosabatlar solishtirildi. Shuningdek, semantik-sintaktik tahlil usuli orqali aktantlar tizimi, ularning gap tarkibida namoyon bo'lishi hamda grammatik shakllar ta'sirida yuz beradigan o'zgarishlar o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar, lingvistik tadqiqotlar va amaliy til birliklaridan foydalanildi.

Natijalar. Valentlik nazariyasi tilshunoslikda so'zlarning sintaktik va semantik imkoniyatlarini aniqlashda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Bu nazariya doirasida leksemaning boshqa birliklar bilan bog'lanish qobiliyati nafaqat uning leksik ma'nosi, balki grammatik shakllari orqali ham belgilanadi. Ayniqsa, turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida grammatik morfemalarning faol qo'llanishi leksema valentligining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Til tizimida leksema va grammatik shakl o'zaro mustaqil bo'lishiga qaramay, nutqda ular bir butun birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli grammatik shaklning semantik struktura va sintaktik qurilishga ta'sirini o'rganish valentlik nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Grammatik shakllar, xususan, fe'l nisbatlari, kelishik kategoriyasi hamda egalik shakllari leksemaning gap tarkibidagi aktantlari sonini, ularning funksional rolini va semantik munosabatlarini o'zgartira oladi. Natijada, leksemaning dastlabki valentlik modeli nutq jarayonida yangicha ko'rinish kasb etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda valentlik masalasi nafaqat sintaktik, balki semantik va pragmatik jihatdan ham tadqiq etilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda valentlik tilning kommunikativ imkoniyatlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Chunki nutq jarayonida grammatik shakl orqali yuzaga keladigan yangi aktantlar yoki ularning o'zgarishi gapning mazmunini tuzilishini boyitadi va kommunikativ aniqlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, o'zbek tilida grammatik shakl valentligini o'rganish tilning ichki tizimini chuqurroq anglash, sintaktik modellarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash hamda til birliklarining funksional imkoniyatlarini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Bu esa tilshunoslikda valentlik nazariyasining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Grammatik shakl valentligining leksik valentlikka ta'sirini ko'rsatuvchi ikkinchi holat birinchisining tamoman aksi bo'lib, bunda grammatik shakl leksik valentlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya'ni leksemaga boshqa leksemalar bilan birikish imkoniyatlarini beradi. Bunda ham bir necha holatlarni farqlash zarur.

Birinchi holatda grammatik shakl leksik valentlikni qo'shimcha valentlik (yangi aktant) bilan boyitadi. Bu hodisa, jumladan, orttirma nisbat

¹ Аскаров И., Тўхтабоев Н.Х., Гофуров К.Г. Кимё. Дарслик. 7-синф. – Измир, 2003. – 34 б.

² Бу ҳақда С.Д.Кацнельсоннинг куйидаги ишларига қаранг: Кацнельсон С.Д. К генезису номинативного предложения. – Л.: Акад. наук СССР, 1936. – 110 с.; С.Д.Кацнельсон. О грамматической категории (1948) отметим, что в этой статье впервые в науке выдвинуто понятие синтаксической валентности. Трактующей как «свойство слова определенным образом реализоваться в предложении и вступать в определенные комбинации с другими словами», «Определенная форма субъекта сочетается с предикатами определенного типа, определенная атрибутивная категория предполагает вполне определенное по типу определяемое и т.д. Как в химии далеко не всякий элемент способен сочетаться с атомами

других элементов, так и в живой цельности речи далеко не каждое слово сочетается с любым другим»; Кацнельсон С.Д. Историко-грамматические исследования один из истории атрибутивных отношений. Ч. 1. – М.-Л.: Акад.наук СССР, 1949. – 384 с.; Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М.: Наука, 1965. – 110 с.; Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л.: Наука, 1972. – 216 с.; Кацнельсон С.Д. Общее и типологическое языкознание. – Л.: Наука, 1986. – С. 127 с.

³ Степанова М.Д. Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. – М.: Высшая школа, 1978. – 141-142 с.

shakllarida kuzatiladi. Chunonchi, orttirma nisbat shakli o'timsiz fe'llarga qo'shilganda fe'l valentligi vositasiz to'ldiruvchi – obyekt valentligi bilan kengaytiriladi. Chunonchi, *yurmoq* so'zining semantik valentligi bilan *yurgizmoq* yoki *yuritmoq* orttirma nisbat shaklining valentligi orasida bitta asosiy farq mavjud: *yurgizmoq*, *yuritmoq* fe'llari o'timli bo'lib, patsiyens aktantiga ega. Bunday aktant *yurmoq* fe'lida yo'q. O'timli fe'l ham orttirma nisbat shaklini qabul qilganda, yangi aktantga – kauzator, sababchi, harakatning bajarilishiga sabab bo'luvchi aktantiga ega bo'ladi. Bu kauzator lingvistik tadqiqotlarda, T.Inoyatov, A.Kononov, Y.Tojiyev, S.Sultonsaidova, S.A'lamova, M.Mirtojiyev, S.Maxmatqulov, S.Muhamedova tadqiqotlarida qayd etilganidek, «harakatni bajarishga majbur etuvchi»dan «harakatning bajarilishiga yo'l qo'yuvchi» oralig'idagi ma'noviy xususiyatlarga ega bo'la oladi. Chunonchi: «*Jasur xatni yozdirdi*». Ushbu gapda Jasurning qistovi, undashi asosida harakat boshqa shaxs tomonidan bajarilganligi ifodalansa, «*Shahzodbek pulni o'g'irlatdi*» gapida o'g'irlatdi yoki «*Shamshodbek sochini oldirdi*» gaplarida gap egasi harakatning boshqa bir kishi tomonidan bajarilishiga yo'l qo'yuvchi aktant sifatida reallashadi. Holbuki, o'g'irlamoq, olmoq leksemalarida bunday aktant bilan birikish qobiliyati yo'q edi. Shuningdek, o'timsiz fe'ldan anglashilgan holat subyekti orttirma nisbat shaklini olsa o'timli fe'lga aylanishi haqida professor M.Mirtojiyevning “O'zbek tilidagi fe'l valentliklari” qo'llanmasida ham aytib o'tiladi. Orttirma nisbat so'z shaklining yangi agens valentligi hosil qilishi haqida u yerda shunday yozilgan: “Orttirma nisbatida u olmoshida ifodalangan yangi agens orttiriladi va fe'lining o'z subyekti obyekt aktanti mavqeini oladi. Ya'ni fe'llarning orttirma nisbat shakli semantikasi unga hamma vaqt agens mavqeidagi valentlikni ilova qiladi”. Haqiqatan ham, *U ovqatni pishirdi*, *U qizni tushirdi* gaplarida yangi u agensi ortib, (ovqatni, qizni) patsiyens valentligi ham yuzaga keladi. Fe'l aniq nisbatda bo'lganida esa *ovqat pishdi*, *qiz tushdi* holati ko'rinadi. Unday holatda *ovqat* va *qiz* agens bo'lib keladi.

Muhokama. So'z shakli leksik-semantik valentlikni kengaytiruvchi ikkinchi holatni egalik va qaratqich kelishliklari misolida kuzatish mumkin. Bu holatda so'zshakl tamoman yangi turdagi birikish qobiliyatini namoyon etadi. Odatda, *kitob* va *muqovada* so'zlari o'zaro birika olmaydi. *Kitobning* va *muqovasi* so'z shakllari esa o'zaro birikib, *kitobning muqovasi* so'z birikmasini hosil qiladi. Shunday hodisani qaratqichli so'z birikmalarining barchasida ko'rish mumkin: *men* va *uka*; *mening ukam*.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Suvonova N. Fe'lining bir semantik-sintaktik turi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2000. №2. – B. 62-64.
2. Севортян Э.В. Проблемы частей речи // Вопросы грамматического строя. – М., 1955. – С. 190-193.
3. Севортян Э.В. Категория сказуемости // ИСГТЯ. – М., 1956. – С.16-21.
4. Севортян Э.В. Категория принадлежности // ИСГТЯ. – М., 1956. – С. 38-45.
5. Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. – М., 1962. – 149 с.
6. Севортян Э.В. Из истории прилагательных в тюркских языках // Тюркологические исследования. – М.-Л., 1963. – С. 97.
7. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. – М.: Учпедгиз, 1933. – 695 с.
8. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – 666 с.
9. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning formal-funksional tadqiqi. – Toshkent, 1994. – 356 b.

Demak, grammatik shakl valentligining leksik-semantik valentlikka ta'sirining ikkinchi turi sifatida leksik valentlikning so'zshakl valentligida kengayishini qayd etish mumkin.

Tavsiflangan ikki holatdan tashqari uchinchi holat ham bor. Bunda leksik valentlik so'zshakl valentligida sifatiy o'zgarishga uchraydi – so'zshaklda leksik valentlik aktantlaridan birining harakat yo'latga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Buni birgalik nisbat so'zshakllarda ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, o'pishdi so'z shakli valentligi bilan o'pdi valentligi orasida farq shundaki, o'pishdi so'z shaklda o'pmoq fe'lidagi vositasiz to'ldiruvchi bilan ifodalanuvchi obyekt aktanti chetlashtirilib, uning o'rnida harakatga nisbatan ham obyekt, ham agens ma'noli va vositali to'ldiruvchi bilan ifodalanuvchi yangi aktant – kontragent⁴ paydo bo'ladi. Jumladan: Singlim Madinani o'pdi. Shamshodbek Shahzodbekni urdi. Karima xolam jiyani bilan o'pishdi. Shamshodbek Shahzodbek bilan urishdi. Har ikkala so'z shaklining bu gaplarda voqelangan aktantlar miqdori bir xil, lekin sifat jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Birgalik nisbati kontragent valentligini yuzaga keltirishi professor R.Rasulovning, S.Muhamedovanning doktorlik dissertatsiyalarida ham qayd etilgan. M.Mirtojiyevning yuqorida keltirilgan monografiyasida kengroq ta'rif beriladi: “Fe'ning birgalik nisbati qo'shimchasi semantikasi o'ziga xos bo'lgan valentlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, birgalik nisbati fe'llarga qo'shilib, kontragent valentligini ilova qilishi kuzatiladi. Masalan, *Tug'ilgan kunimda dadam buvim bilan menga nom qidirishibdi* (G'.Rasul) gapida qidirishibdi birgalik nisbatidagi fe'ning agensi *dadam* so'zida ifodalangan bo'lib, fe'ning birgalik nisbati shakli semantikasiga ko'ra kontragent valentligi yuzaga kelgan va u *buvim* so'zida namoyon bo'lgan. Kontragent aktanti gapda deyarli bilan ko'makchisi bilan qo'llanadi. U birgalashuvchi shaxsni ifoda etadi”.

Xulosa. Yuqoridagi tavsif va tahlillardan ko'rinib turganidek, grammatik shakl valentligi maxsus, jiddiy tadqiq etilishga loyiq va har bir davr uchun muhim ilmiy muammodir. Bu masalaning mukammal yechimi tilimizda mavjud bo'lgan grammatik kategoriyalar va shakllarning valentligi hamda har bir shaklning muayyan sharoitlarda leksik valentlikka qanday ta'sir qilishini mufassal tavsif, tahlil etilgandan keyingina berilishi mumkin. Shuning uchun bu maqolada mazkur masala kun tartibiga qo'yildi. Maqolada berilgan tavsif shuni yaqqol ko'rsatib turibdiki, grammatik shakl yoki boshqacha qilib aytganda, grammatik morfema leksema singari o'ziga xos valentlikka ega va bu valentlik leksik valentlikka uch xil ta'sir o'tkazadi.

10. Sayfullayeva R., Shahobiddinova SH. Neytral lisoniy birlik formal va struktural tilshunoslikda // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2008. № 5. – B. 63-66.

11. Safoyev A. O'zbek tilida bir va ikki sostavli gaplarning bosh bo'laklari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1958. – 148 b.
12. Сафоев А.С. Семантика-синтаксическое члени предложения в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1977. – 144 с.
13. Сафоев А.С. Исследования по синтаксису узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1968. – 161 с.
14. Shokirova X. Savodxonlik asoslari. – Farg'ona, Classic. 2023. – 186 b.
15. Shokirova X. O'zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz. diss. – Toshkent, 2009. – 127 b.
16. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturalari (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss.– Farg'ona, 2022.– 240 b.
17. Shokirova X. SEMIOTIK MODEL KONSEPSIYASI. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024, 4-son. – 1840 b.
18. Shokirova X. O'zbek tilida valentlik nazariyasi. – Farg'ona, Classik. 2025. – 112b.

⁴ Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 46-49; Мухамедова М. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2007. – 325 б.